

## TA'LIM JARAYONINI LOYIHALASHTIRISHDA TA'LIM DASTURLARINING AHAMIYATI

**Saydillayeva Mehrinaz Bahodirovna**

Termiz davlat pedagogika instituti

“Maktabgacha ta'lim nazariyasi”

kafedrası o'qituvchisi Termiz (O'zbekiston)

E-mail: [mehrinozsaydullayeva@.com](mailto:mehrinozsaydullayeva@.com)

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonlarini loyihalashtirish davomida ta'lim dasturlarini ishlab chiqish va foydalanish, ta'lim dasturlarining turlari, variativlikning afzalliklari hamda ta'lim dasturlarini ishlab chiqish provardida ta'lim sifati va samaradorligini oshirib borish istiqbollari haqidagi ilmiy qarashlar keltirib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** Bola, dastur, qobiliyat, texnologiya, variativlik, ta'lim jarayoni, loyihalashtirish usullari, dastur turlari

## ЗНАЧЕНИЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ПРОГРАММ В ПРОЕКТИРОВАНИИ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА

**Саидиллаева Мехриназ Бахадировна**

Термезский государственный педагогический институт

Преподаватель кафедры «Теория дошкольного образования»

Термез (Узбекистан)

E-mail: [mehrinozsaydullayeva@.com](mailto:mehrinozsaydullayeva@.com)

### АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматриваются разработка и использование образовательных программ при проектировании образовательного процесса в образовательных организациях, виды образовательных программ, преимущества вариативности, а также перспективы повышения качества и эффективности образования в процессе развития образовательных программ, мнения упоминаются.

**Ключевые слова:** Ребенок, программа, способности, технология, вариативность, образовательный процесс, методы проектирования, виды программ.

## THE IMPORTANCE OF EDUCATIONAL PROGRAMS IN THE DESIGN OF THE EDUCATIONAL PROCESS

**Saydillaeva Mekhrinaz Bakhadirovna**

Termez State Pedagogical Institute

Lecturer at the Department of “Theory of Preschool Education”

Termez (Uzbekistan)

Email: [mehrinazsaydullayeva@com](mailto:mehrinazsaydullayeva@com)

### ABSTRACT

This article discusses the development and use of educational programs in the design of the educational process in educational organizations, types of educational programs, the advantages of variability, as well as prospects for improving the quality and effectiveness of education in the development process. educational programs, opinions are mentioned.

**Keywords:** Child, program, abilities, technology, variability, educational process, design methods, types of programs.

### KIRISH

Bugungi rivojlanib borayotgan jamiyatning tub mohiyati ta’limga bo’lgan e’tibor natijasi desak mubolag’a bo’lmaydi. Ta’lim jarayonida bir qator yangiliklar, izlanishlar olib borilmoqdaki, ta’lim jarayonini takomillashtirishning hozirgi bosqichida Davlat ta’lim standartlari talablariga muvofiqligi ta’minlanmoqda. Bunda ta’lim dasturlarining o’rni benihoya katta. Ta’lim tizimini, shakillari va usullarini ko’rish mumkin. Yurtimizda ta’lim sohasida ta’lim dasturlari xizmatlarini taqdim etish turlari va shakillarning variativligi ta’minlanadi, deb qayd etilgan. Ta’lim dasturlarining mazmuni va ularni amalga oshirishda variativlik har bir ta’lim muassasasi, hatto har bir pedagog o’z ta’lim dasturlarini yaratishi va ularni amalga oshirishning turli usullaridan foydalanishi mumkinligini anglatadi.

### ADABIYOTLAR TAHLILI

“Dastur” so’zi yunon tilidan olingan bo’lib, bo’lajak voqealar va harakatlarning komponenti bo’lib, barcha ta’lim jarayonining ishtirokchilarini ta’lim faoliyatining mazmuni va rejalashtirilgan natijalari haqida xabardor etish vazifasini bajaradi hamda ta’lim jarayonini rejalashtirishning asosi bo’lib xizmat qiladi.

Ta’lim jarayonida ta’lim dasturlari va ularning variativligi zamonaviy ta’lim tizimining asosiy prinsiplari va yo’nalishlaridan biridir. Maktabgacha ta’limda variativlikning maavjudligi ta’lim jarayonining barcha ishtirokchilari uchun katta

imkoniyatlar yaratadi. N.V.Nemova va T.P.Afanasyeva fikriga ko'ra, pedagogik tizim variativlik darajasining ko'rsatkichlari quyidagilardan iborat:

-unda bolalar uchun bir nechta bir xil yaxshi va qulay va qulay dasturlar variantlari mavjudligi (teng darajada yuxshi variantlarning ko'pligi);

-bolalar uchun ta'lim olish variantlaridan birini tahlash imkoniyatining mavjudligi;

-tizimning moslashuvchanligi (tarbiyalanuvchining ta'lim ehtiyojlariga mos o'zgartirishlar qilish uchun sharoit yaratish).[1:32]

Ta'lim dasturlarining asosiy sharti ta'limning asosiy prinsiplari va talablariga, shuningdek, Davlat ta'lim standartlariga muvofiq, barcha ta'lim muassasalarida ta'lim oluvchi shaxslarda ta'lim samaradorligini ta'minlashi shart bo'lgan talablarga rioya qilish zaruriyati ko'zlangan.

### **TADQIQOT METODOLOGIYASI**

**Ta'lim dasturlari** -bu ta'lim maqsadlarini faoliyat, muloqat, vositalari va usullari, shaxsning maqsadlariga mazmunli munosabatni, ta'lim jarayonini tanlash jarayonida amalga oshiradigan ta'lim ishtirokchilarning o'zaro bog'liq faoliyati. Shuningdek, biz bugun madaniy merosga tobora ko'proq e'tabor qaratilayotganini kuzatayapmiz. Ta'lim jarayonida pedagoglar duch keladigan madaniyatlar, tillar, urf – odatlarning xilma-xilligi, pedagoglar, ota-onalar va ta'lim tashkilotlarining ta'sischi eng munosib dasturlarni tanlash, bundan tashqari, ular ta'lim mazmunini paydo bo'layotgan ta'lim holatiga muvofiq qurishlari kerakligini talab qiladi. Ushbu talab dasturlar, uslublar va texnologiyalar "bozorida" takliflarga bo'lgan ehtiyojni keltirib chiqarmoqda.

Ta'lim dasturlari shaxsni rivojlantirish bo'yicha yagona strategiya bo'lishi mumkin. Ta'lim dasturlarini ishlab chiqish ta'limni individuallashtirishning eng yuqori darajasini ta'minlashga qaratilgan. Uzluksiz ta'lim jarayonida ta'lim dasturlarini ishlab chiqish ta'lim jarayonida ta'lim maqsadlarini amalga oshirishda mazmunini va jarayoniga munosabatni tanlash sharoitida ta'lim ishtirokchilarining o'zaro faoliyatidir

Uzluksiz ta'lim jarayonida bir qator ta'lim dasturlari mavjud.

- Variativ dasturlar
- Mintaqaviy dasturlar
- Mahalliy (ya'ni hududiy) dasturlar
- Asosiy va qo'shimcha dasturlar
- Taxminiy dasturlar
- Kompleks dasturlar
- Parsial dasturlar
- Ishchi dasturlar

**Variativ dasturlar**-bu ta'lim maqsadlarini faoliyat, muloqat, vositalari va usullari, shaxsning maqsadlariga mazmunli munosabatni, ta'lim jarayonini taxlash sharoitida amalga oshiradigan ta'lim ishtirokchilarning o'zaro bog'liq faoliyati hisoblanadi. Ta'lim jarayonida pedagoglar duch keladigan madaniyatlar, tillar, urf – odatlarning xilma-xilligi, pedagoglar, ota-onalar va ta'lim tashkilotlarining ta'sischi eng munosib dasturlarni tanlash, bundan tashqari, ular ta'lim mazmunini paydo bo'layotgan ta'lim holatiga muvofiq qurishlari kerakligini talab qiladi. Ta'lim dasturlari ijodiy rivojlanish va shaxsning ko'p tomonlama qobiliyatlarini (aqliy, kommunikativ, harakatli, ijodiy) shakillantirishga, ta'lim oluvchilar faoliyatining o'ziga xos turlarini (mavzu, o'yin, teatr, vizual, musiqiy, dizayn va boshqalar) shakillantirishga hissa qo'shgan. Ta'lim jarayonida asosiy ta'lim faoliyatini tashkil etish doirasida maxsus dasturlar qo'llanilishi mumkin.

Ta'lim jarayonini tashkil etishda asosiy o'rinni korreksion yo'nalishdagi dasturlar egallaydi. Asosiy davlat o'quv dasturining maqsadi Davlat standartlarida belgilangan natijalarga erishishdir.

**Asosiy va qo'shimcha dasturlar**, milliylik dasturlari bo'lishi mumkin. Ular ijodiy guruhlar yoki alohida mualliflarning tashabbusi bilan ishlab chiqiladi.

**Mualliflik dasturlari** ta'lim-tarbiya jarayonida keng tarqalgan, umume'tirof an'anaviy qarashlar asosida ham, keng tarqalmagan yangi pedagogik nazariyalar va tushunchalar asosida ham qurilishi mumkin. Mualliflik dasturlari hududiy ta'lim muassasalari bo'limlarining buyurtmasi asosida ishlab chiqilishi mumkin. Shuning uchun ularda ta'limning mazmuni hududiy, etnik-madaniy, tarixiy va boshqa xususiyatlar va an'analardan foydalanishga asoslangan.


**Qo'shimcha ta'lim dasturlarini** amalga oshirish asosida qo'shimcha ta'lim xizmatlarini (pullik, bepul) taqdim etish faqat ota-onalarning (ularning qonuniy vakillarining) iltimosiga binoan, ular bilan shartnoma tuzish orqali amalga oshiriladi. Ta'lim jarayonida qo'shimcha dasturlaridan foydalanish ta'lim oluvchilar uchun maktabgacha ta'lim muassasalarida va undan tashqarida tashkil etilgan ijodiy studiyalarda, to'garaklarda, seksiyalarda va hokozalarda yangi moslashuvchan ta'lim shakillarining rivojlanish bilan mumkin bo'ladi.

Qo'shimcha dasturlarga turli ta'limiy yo'nalishlaridagi dasturlar kiradi:

- ❗ badiiy va estetik,
- ❗ etnik-madaniy,
- ❗ madaniy,
- ❗ intellektual rivojlanish,
- ❗ kommunikativ va nutq,
- ❗ atrof – muhit va eklogik,
- ❗ sport va fitnes,

! korreksiyaning turli yoʻnalishlari va boshqalar.

**Kompleks va parsial dasturlar.** Kompleks dasturlar asosiy oʻquv dasturining barcha jihatlarini qamrab oladi. Shunday qilib, parsial dastur shaxsni rivojlantirishning bir yoki bir nechta yoʻnalishlarini qamrab olishi yoki muayyan bir yoʻnalish asosida ishlab chiqilgan taʼlim dasturi boʻlishi mumkin.



### 1-rasm; Parsial dastur yoʻnalishlari.

Maʼlumki, dasturlar ishlab chiqishda taʼlim jarayonining maqsadi, vazifasi, ustivor yoʻnalishlarni, pedagoglar tarkibi va malakali, shuningdek, taʼlimni rivojlantirish muhiti uchun mos va muqobil ravishda ishlab chiqish tavsiya etiladi.

### TAHLIL VA NATIJALAR

Taʼlim jarayonida variativ, parsial dasturlarni ishlab chiqishning maqsadi; davlat standartlarini bajarish maqsadida asosiy oʻquv dasturi asosida taʼlim jarayonini samarali rejalashtirish, tashkil etish va taʼlim sifatini rivojlantirishdan iborat. Qoʻshimcha dasturlar (parsial, ishchi, kompleks) taʼlim jarayonining oʻziga xos sharoitlaridan, oʻquv ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda pedagogning individual pedagogik modelini yaratishini koʻrsatib beradi.

### Dasturlar quyidagilarni taʼminlashi kerak:

- + Taʼlim oluvchilarning jismoniy va ruhiy salomatligini himoya qilish mustahkamlash va rivojlantirish;
- + har bir shaxsning hissiy farovonligi;
- + taʼlim oluvchining intellektual rivojlanishi;

Tegishli vazirlik tomonidan tegishli tasdiqlovdan oʻtmagan dasturlarni amalga oshirishga yoʻl qoʻyilmaydi. Taʼlim dasturlari tanlangan yoki yaratilganidan keyin Pedagogik kengash ularni taʼlim faoliyatida amalga oshirish toʻgʻrisida qaror qabul qiladi. Tanlangan taʼlim dasturlari taʼlim muassasasining mahalliy aktlariga kiritilishi kerak. (ustavi, oʻquv dastur). Shunday qilib, qoʻshimcha dasturlar har bir pedagogning faoliyati mazmuni, usul va shakllari nuqtayi nazarida asosiy davlat dasturini amalga oshirishning individual izohidir. Pedagog oʻzining qoʻshimcha dasturini tuzishni

boshlagan holda, nafaqat uning tuzilishini, uni amalga oshirish bosqichlarini, loyihalashtirishni bilishi, balki quyidagilarni ham amalga oshiradigan bo'lishi kerak.

! Ta'lim jarayonining rivojlanishida zamonaviy bosqichlarini o'z faoliyatini tashkil qilish;

! Qo'shimcha dasturning yo'nalishini, uning maqsadi va funksiyalarini aniqlash;

! Ta'lim dasturi mazmuni taqdimotini to'g'ri tanlash;

! Ta'lim dasturlarida amalga oshirish uchun tavsiya etilgan pedagogik texnologiyalarni hisobga olish;

Ta'lim oluvchilar qo'shimcha dastur bo'yicha ta'lim olishni tegishli ta'lim bosqichida tugatishlari kerak. Qo'shimcha dasturning to'liq va sifatli bajarilishi uchun pedagoglar va mutaxassislar javobgardir. Bir so'z bilan aytgandama'lum yo'nalishda ta'lim dasturlarini ishlab chiqish, uni ta'lim jarayonida qo'llash, ta'lim sifati hamda samaradorligini oshirib boradi.

### **XULOSALAR**

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlab o'tishimiz joizki, bugungi tezkor, globallashuv zamonda ta'lim berish usul va vositalari ham jadallik bilan rivojlanib bormoqda. Bu esa pedagogdan yanada mahoratli, o'z ustida tinimsiz faoliyat olib borishni talab qilmoqda. Bugungi kun pedagogi qisqa vaqtda katta hajmdagi axborotlarni sifatli yetkazib borishi va aniq ko'zlangan maqsadga erishib borishi bugungi kunning dolzarb muammolaridan biriga aylanib bormoqda. Buning uchun pedagog zamonaviy pedagogik texnologiyalarni mukammal bilishi, multimediyaga vositalaridan samarali foydalana olishi lozim. Shu bilan bir qatorda belgilangan ma'lum fan, soha uchun qo'shimcha ta'lim dasturlarini ishlab chiqish, uni amaliyotga joriy qilish ham sifatli ta'limga bo'lgan e'tiborning, harakatning deboochoasi desak mubolag'a bo'lmaydi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)**

1. М Сайдиллаева “Effectiveness of variative development of educational programs in pedagogical processes” Общество и инновации, 2023.2.20, 160-165/ 2181-1415/© 2023 in Science LLC. DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol4-iss2/S-pp160-165>

2. MBQ Saydillayeva, MM Tog'Ayeva kamchiliklarini ko'rib chiqamiz. “PEDAGOGIK JARAYONLARDA RIVOJLANTIRUVCHI TA'LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATLI TOMONI (MUAMMOLI TA'LIM TEXNOLOGIYASI MISOLIDA)” Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences/ 2023/ 314-319/ OOO «Oriental

renessans»

[https://scholar.google.ru/scholar?oi=bibs&cluster=11919568573644608574&btnI=1  
&hl=ru](https://scholar.google.ru/scholar?oi=bibs&cluster=11919568573644608574&btnI=1&hl=ru)

3. MB qizi Saydillayeva utish mumkin. “TA’LIM JARAYONIDA PEDAGOGIK FAOLIYAT TURLARINI TASHKIL ETISH VA SAMARADORLIKKA ERISHISH YO‘LLARI”. YOUTH, SCIENCE, EDUCATION: TOPICAL ISSUES, ACHIEVEMENTS AND INNOVATIONS 2022/11/5, 121-127

[https://scholar.google.ru/scholar?oi=bibs&cluster=2665915022005712967&btnI=1&  
hl=ru](https://scholar.google.ru/scholar?oi=bibs&cluster=2665915022005712967&btnI=1&hl=ru)